



T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika  
fanlari ilmiy tadqiqot instituti

# UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2023  
Maxsus son

**DJURAYEV Risbay**  
**Bosh muharrir**

Jurnal 2001 yildan nashr qilina  
boshlangan.

O'z MAAdan 2007 yil 3-yanvarda  
№ 0101-tartib raqami bilan  
qayta po'yxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan  
maqolalardan iqtibos keltiril-  
ganda «Uzluksiz ta'lim»  
jurnalidan olinganligi ko'rsa-  
tilishi lozim.

## Tahrir hay'ati:

*Abdug'appon* QIRQIZBOYEV  
*Uzoqboy* BEGIMQULOV  
*Xolboy* IBRAGIMOV  
*Laylo* AXMEDOVA  
*Roxatoy* SAFAROVA  
*Leyla* DJURAYEVA  
*Dono* G'ANIYEVA  
*Lobar* QARAXANOVA  
*Dusmurod* DJURAYEV  
*Baxodir* AKBAROV  
*Komiljon* KARIMOV  
*Komiljon* GULYAMOV

## Tahririyat manzili:

100027, Toshkent sh.,  
Furqat ko'chasi,  
174-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim\_jurnal@mail.ru  
liya\_2305@mail.ru

## TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 **G.I. Muxamedov**  
Pedagogik ta'lim innovasion klaster: uzluksiz ta'limni rivojlantirishning zamonaviy mexanizmi sifatida
- 8 **J.E. Usarov**  
Talabalarning individual ta'lim trayektoriyasi – ta'lim uzluksizligining bosh omili sifatida
- 13 **D.O. Ximmataliyev**  
Uzluksiz ta'lim bosqichlarida individual yondashuv asosida kasbga yo'naltirish omillari
- 18 **U.I. Mahkamov**  
Uzluksiz ta'lim jarayonida tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish
- 24 **S.B. Qorayev**  
Uzluksiz ta'lim jarayonida tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish
- 30 **G.O. Ernazarova**  
Ta'lim va amaliy faoliyat uzluksizligi klaster yondashuv asosida ta'minlash metodologiyasi
- 36 **Y.H. Xodjamkulov**  
Uzluksiz ta'limni rivojlantirishning hamkorlik mexanizmlari
- 41 **M.O. Raxmanova**  
Talabalar ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda uzluksiz va individual yondashuvning dolzarbligi
- 47 **Ф.У. Қодирова**  
Инклюзив таълимда узвийлик ва узлуksizlikni ta'minlashning pedagogik-psixologik mexanizmlari
- 53 **G.S. Abdullayeva**  
Uzluksiz inklyziv ta'limni sifatli ta'minlashda axborot texnologiyalarning o'rni
- P. Mусупмонов**  
59 Uzluksiz ta'lim muassasalarida ўquv жараёнига nisbatan интизомsizlikka оид педагогик ва психологик қарашлар
- 65 **I. Qodirov**  
Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining taraqqiyot strategiyasi va uning amalga oshirish mexanizmlari
- 71 **J.F. Ravshanov**  
Pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarida «4+2» shakli bo'cha amaliyot o'tashni tashkil etish
- 75 **Y.YU. Fayzиеva**  
Оптимизация специальных учреждений – как эффективный путь трансформации образования детей к ОВЗ от специального образования к инклюзивному
- 81 **Sh. A. Abdusalilova**  
Maxsus pedagogikaga oid fanlarning o'qitilishida uzviylikni ta'minlashning o'ziga xosligi
- 87 **N.J. Eshnaev**  
OTMlarda mobil mutaxassis tayyorlash – kasbiy yo'nalganlikning ijtimoiy-pedagogik kafolati ekanligi
- 93 **Sh. X. Kobilova**  
Uzluksiz inklyziv ta'lim muammosini xorij tajribasi misolida o'rganish va uning pedagogik tahlili
- 99 **M.F. Qurbanova**  
Uzluksiz ta'limda jaraonida zamonaviy yodashuvlar
- 104 **A.R. Raxmonov**  
Uzluksiz ta'lim tizimida uslubiy yordam ko'rsatishning pedagogik mobilli tizimidan foydalanish
- 110 **I.O. Sayfullayeva**  
Bo'lajak logopedlarning uzviy kasbiy faoliyatini metodik tizimlashtirishda art texnologiyalarning o'rni
- 116 **O.S. Ishmatova**  
Fonetik ritmika mashg'ulotlari asosida o'quvchilarning nutqiy muammolarini bartaraf etish uzviyligini ta'minlash yo'llari
- 121 **N.A. Egamberdiyeva**  
Autizm sindromli bolalar bilan yakka ishlashning uzviyligini ta'minash omillari



## UZLUKSIZ INKLYUZIV TA'LIM MUAMMOSINI XORIJ TAJRIBASI MISOLIDA O'RGANISH VA UNING PEDAGOGIK TAHLILI

**Sh.X.KOBILOVA,**

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
Pedagogika fakulteti «Maxsus pedagogika»  
kafedrası o'qituvchisi,  
pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)*

*Ushbu maqolada AQSh, Finlyandiya, Fransiya va Kanada mamlakatlarida uzluksiz inklyuziv ta'limni tashkil etish bilan bog'liq ilmiy-nazariy va amaliy tajribasi o'rganilgan bo'lib, pedagoik texnologiya va yondashuvlar ilmiy tahlil etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *uzluksiz inklyuziv ta'lim, pedagogika, imkoniyati cheklangan bola, maxsus tayyorgarlik, o'qituvchi, CWPT, MAPS, COACH texnologiyasi, individual yordam.*

*В данной статье исследуется научно-теоретический и практический опыт, связанный с организацией непрерывного инклюзивного образования в США, Финляндии, Франции и Канаде, с научным анализом педагогических технологий и подходов.*

**Ключевые слова:** *непрерывное инклюзивное образование, педагогика, ребенок с ограниченными возможностями, специальная подготовка, учитель, CWPT, MAPS, технология коучинга, индивидуальная поддержка.*

*This article examines the scientific, theoretical and practical experience associated with the organization of continuous inclusive education in the USA, Finland, France and Canada, with a scientific analysis of pedagogical technologies and approaches.*

**Key words:** *continuous inclusive education, pedagogy, child with disabilities, special training, teacher, CWPT, MAPS, coaching technology, individual support.*

Informatsion jamiyatda o'z ta'siriga ega bo'lgan globallashuv omillari ta'lim mazmun-mohiyatini o'zgartirishga, shuningdek, ta'lim tizimda mavjud bo'lgan sun'iy to'siqlarni olib tashlash jarayonlarini tezlashtirgan holda, imkoniyati cheklangan bolalarni uzluksiz ta'lim jarayoniga sog'lom bolalar bilan bir qatorda ta'lim olish hamda ijtimoiy integratsiya masalalarini ijtimoiy zarurat va dolzarb omillardan ekanligini ko'rsatdi.

Bugungi kunda jamiyatimizda o'qituvchilarni uzluksiz inklyuziv ta'lim sharoitida faoliyat olib borish masalalarini zamona talabi nuqtai nazaridan ko'rib chiqish va muvofiqlashtirishda xorij amaliyotini inobatga olish hamda ilg'or tajribalarni pedagogik ta'lim jarayoniga singdirish davr talabi bo'lib qolmoqda. Mazkur yondashuv ya'ni xorijiy nazariya va amaliyotda uzluksiz inklyuziyani



rivojlantirish tendensiyalarini hisobga olgan holda joriy etish muhim ahamiyat kasb etib, jamiyatimizda uzluksiz inklyuziv ta'limni shakllantirishda xatolarga yo'l qo'ymaslik va imkoniyati cheklangan bolaga ta'lim xizmatlarini ko'rsatadigan o'qituvchining malakasini oshirish uchun mos strategiyani tanlash imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan, xorij mamlakatlarida joriy etilgan uzluksiz inklyuziv ta'limning rivojlanish tendensiyalarini tadqiq etish va nazariy-amaliy jihatlaridan kelib chiqib, istiqbolli taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish bugungi kunda mamlakatimizda joriy etilgan inklyuziv ta'limni, uzluksiz inklyuziv ta'lim darajasiga olib chiqish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

1980-yilda Amerika qo'shma shtatalari Kongressi tomonidan hamma uchun teng ta'lim imkoniyatlari va undan foydalanish loyihasi ishlab chiqilib, uzluksiz ta'lim jarayonini jamiyatning ajralmas qismi ekanligini, uni qonun bilan mustahkamlash masalalari e'tirof etilgan. Davlat va jamiyat hayotiga daxldor bo'lgan mazkur loyiha 2001 yilda «Orqada qolmagan bola» qonuni bilan kafolatlandi.

Mazkur qonun AQShda yashovchi barcha bolalar uchun uzluksiz ta'lim olishning asosiy huquqlarini belgilab, 2004 yilda Kongressi tomonidan «Nogironlar ta'limi to'g'risida» gi qonun bilan yanada mustahkamlandi.

Ushbu qonun imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim olish ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan barcha ta'lim turlari va shakllarini o'zida aks ettirib, «eng kam cheklovchi muhit»ni yaratish zaruratini ijtimoiy-siyosiy masala ekanligini o'zida aks ettirgan. «Eng kam cheklovchi muhit» shuni anglatadiki, imkoniyati cheklangan bolani ta'lim olish muassasasi uning yashash joyiga eng yaqin va qulay sharoitda bo'lishi kerakligini ifodalaydi.

Mazkur qonunda nafaqat imkoniyati cheklangan bolalarni uzluksiz ta'lim tizimiga integratsiya qilish jarayoniga e'tibor qaratilgan, balki o'qituvchilarni tayyorlash, malakasini oshirish masalalari ham qonun bilan asoslangan. Ushbu qonunga muvofiq, alohida e'tiborga ehtiyojmand va imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlaydigan o'qituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimi, davlat va jamiyat tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlanib, ular faoliyat va kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan.

Uzluksiz inklyuziv ta'lim uchun maxsus o'qituvchilarni tayyorlashga qaratilgan chora-tadbirlar ijtimoiy-siyosiy masala sifatida, amaliy faoliyat jarayonida o'qituvchilarni nufuzli kollej va universitetlarda asosiy ta'lim olish masalalari davlat tomonidan nazoratga olinib to'liq qo'llab-quvvatlandi.

Shuningdek, uzluksiz inklyuziv ta'lim jarayonida faoliyat olib boradigan o'qituvchilar maxsus sertifikatlash dasturlari asosida tayyorlanib, muntazam malakasini oshirib borishi hamda malaka imtihonini topshirishi talab etiladi. Maxsus sertifikatlash dasturlari yuzasidan malaka oshirib bormagan o'qituvchilarga, uzluksiz inklyuziv ta'limda faoliyatini amalga oshirishga ruxsat berilmaydi.[3]

Ye.R. Yarskaya-Smirmova ilmiy mulohazalariga ko'ra AQShda 1970-yillarda



imkoniyati cheklangan bolalarni bir nechta yo‘nalishlarda, sog‘lig‘ining holatidan qat‘iy nazar, ta‘lim olish imkoniyatini kengaytirish maqsadida inklyuziv o‘qitish tizimi yo‘lga qo‘yilgan.[8] Bundan ko‘zlangan maqsad, imkoniyati cheklangan bolalarni, keyinchalik ommaviy bolalar bog‘chalari joriy etish orqali uzluksiz inklyuziv ta‘limni jamiyat hayotiga to‘liq realizatsiya etishga ustuvorlik berilgan.

AQSh tajribasini bizni jamiyatimizda tashkil etilgan inklyuziv ta‘lim tizimiga joriylantirish, uzluksiz inklyuziv ta‘limni sifatli amalga oshirishga xizmat qilib, mazkur ta‘lim jarayonida faoliyat olib boradigan tarbiyachi va pedagoglarni maxsus inklyuziv ta‘lim sertifikatini bilan ta‘minlanish imkoniyatini beradigan, malaka oshirish institutlarini tashkil etishda hamda o‘qitish tizimini muvofiqlashtirishda samarali xorij tajribasi sifatida foydalanish maqsadga muvofiq bo‘lib, uzluksiz inklyuziv ta‘lim mohiyatini ochib berishga metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Finlyandiya ta‘lim siyosatida uzluksiz inklyuziv ta‘lim ustuvor masala etib belgilangan bo‘lib, ta‘lim tizimining samaradorligi turli xil fiziologik va aqliy nuqsonlar bo‘lgan bolalarni ta‘limga to‘liq jalb etilishi bilan tavsiflanadi.

Mazkur ta‘lim jarayonining bosh g‘oyasi alohida ehtiyojmand bolalarni individual qo‘llab-quvvatlash, har bir ta‘lim bosqichida amalga oshirilishi, shuningdek, maxsus fan o‘qituvchilarini professional darajada mukammal inklyuziv ta‘lim olishini talab qiladi. Finlyandiya inklyuziv ta‘lim jarayonida faoliyat olib borishi lozim bo‘lgan o‘qituvchi kamida magistr darajasiga ega bo‘lishi talab etiladi. Shuningdek, o‘qituvchi yuqori kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lishi, uzluksiz inklyuziv ta‘lim jarayonida pedagogik amaliyotni o‘tagan bo‘lishligi hamda zaruriy bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishi talab etiladi.

Finlyandiya autistik spektral buzilishi bo‘lgan bolalarni o‘qitish muammosiga katta e‘tibor qaratilmoqda. Autizm bilan tashxis qo‘yilgan bolalarni ijtimoiylashtirish va muloqot qobiliyatini rivojlantirish asosida, qiyinchiliklarni yengib o‘tish ko‘nikma va malakasini shakllantirish hamda guruhda ta‘lim tarbiya bilan bog‘liq muammolarni pedagogik-psixologik korreksion yondashuvlarga muvofiq samaradorlik omillarini yuzaga chiqarmoqda.

Mazkur yondashuv, bolalarni ta‘lim muhitiga integratsiyasini ta‘minlashda guruhdagi faolligini oshirish va o‘quv jarayoniga qo‘shish orqali amalga oshirilib, mavjud «to‘siqni» yengib o‘tish omili sifatida qaraladi. Ushbu jarayonni amalga oshirishda, Finlyandiya ta‘lim tizimlari negizida jismoniy, hissiy va aqliy nuqsonlari bo‘lgan bolalarni o‘qitish uchun maxsus markazlar ham tashkil etilgan. [1]

N.N.Malofeev ta‘biri bilan aytganda, Finlyandiya uzluksiz inklyuziv ta‘lim kontekstida asosiy yo‘nalish bo‘lgan mainstreaming (umumiy oqimga kiritish) masalasiga e‘tibor qaratilib, imkoniyati cheklangan bolalarni uzluksiz inklyuziv ta‘lim tizimi negizida tengdoshlari bilan muntazam ravishda muloqot qilishga, shuningdek, ijtimoiy aloqalarni kengaytirish va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatini yuzaga chiqarishga qaratilgan.[6]



Finlyandiya da uzluksiz inklyuziv ta'lim sohasini amalga oshirish ilmiy tadqiqotlar bilan bevosita uyg'unlashgan bo'lib, olingan nazariy bilim va tajribalar, maxsus tashkil etilgan markazlarda qo'llanilishi uning sifat va samaradorligini yanada yuqoriligini kafolati desak bo'ladi. Mazkur tajribadan kelib chiqib, bizda ham uzluksiz ta'lim muassasalarini tashkil etish jarayonida maxsus inklyuziv markazlarni to'liq faoliyat olib borish bilan bog'liq masalalarini hal etish va uni ilmiy tadqiqot faoliyatlari bilan muvofiqlashtirish lozim.

Yevropa mamlakatlari va AQShda uzluksiz inklyuziv ta'lim normal va zaif rivojlanishi bo'lgan bolalarni hech qanday shart va cheklolvorsiz birgalikda ta'lim va tarbiyalash sifatida qaraladi.[8]

Xorijda uzluksiz inklyuziyani tashkil etishga qaratilgan ta'lim jarayonini tadqiq etishda I.I.Loshakova va E.R.Yarskaya-Smirnova inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha xalqaro tajriba sabr va bag'rikenglik, izchillik, uzluksizlik, bosqichma-bosqich yondashuv va uni amalga oshirishga kompleks yondashuvni talab qiluvchi uzoq muddatli strategiya bilan bog'liq degan xulosaga keldi. Ularning ta'kidlashicha, hozirgi vaqtda inklyuziv ta'lim sohasidagi eng ilg'or qonun hujjatlari qatoriga Kanada, Kipr, Daniya, Islandiya, Hindiston, Malta, Niderlandiya, Norvegiya, Ispaniya, Shvetsiya, AQSh va Buyuk Britaniya kabi davlatlar kiradi.[7]

S.Karrington, J.Kollinz, J.Korbet, K. Xoll, R. Robinson va boshqalar uzluksiz inklyuziv ta'lim g'oyalari bilan maktab madaniyati o'rtasidagi bog'liqlik masalasida ilmiy mulohazalarni ilgari surgan. Jumladan J.Korbet maktabning madaniy muhiti inklyuziv bo'lishga da'vo qilgan taqdirda u ma'lum madaniy guruhlarini marginal qismi emas, balki teng deb hisoblashi kerak deb ta'kidlasa, J.Korbet inklyuziv maktab madaniyatini shakllanishiga ta'sir etuvchi uchta jihatti ajratib ko'rsatdi:

- nogiron o'quvchilarning qobiliyatlari, xususiyatlariga nisbatan o'qituvchilarning chuqur shaxsiy munosabatlari (e'tiqodlari va qo'rquvlari);
- psixofizik rivojlanishi normal bo'lgan bolalarning nogiron tengdoshlariga nisbatan noto'g'ri qarashlari;
- madaniy ozchilikni tashkil etuvchi bolalar guruhlarini birlashtirishga bag'rikenglik.[2]

N.A.Livenseva, Ye.Fittsimons, S.Gerin, Sh.Xardiman, J.Tossebro, K.Vendelborg, R.Bond, E.Castagnera va Kam Pun Vong kabi xorijlik tadqiqotchilarning ishlarida uzluksiz inklyuziv bilan bog'liq jihatlarni tadqiq etgan holda, maktab o'quvchilarida ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirish va imkoniyati cheklangan bolaga nisbatan bag'rikenglik munosabatini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilganligini ta'kidlagan. Uning nuqtai nazaricha, ijtimoiy kompetensiya ko'p qirrali bo'lib – o'quvchining muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuvi uchun zarur bo'lgan ijtimoiy, hissiy, kognitiv va xulq-atvor qobiliyatlari sifatida tushuniladi.

Fransuz olimi S.Gilman uzluksiz inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bolalarni barcha tadbirlariga integratsiya qilishga qaratilgan va inklyuziv ta'lim



sharoitida loyihaga yo'naltirilgan yondashuv deb hisoblaydi. [4]

Kanada va Amerikalik tadqiqotchilar tomonidan taklif etilgan MAPS (Making Action Plans, ingliz tilidan – «harakat rejalari tizimli ishlab chiqarish») texnologiyasi imkoniyati cheklangan bolalar uchun uzluksiz inklyuziv ta'limni rejalashtirish imkonini beradi. Bunga ishtirokchilar faoliyatini rejalashtirish orqali erishiladi, ya'ni ta'limning barcha ishtirokchilari (ota-onalar, o'qituvchilar, o'quvchilar) ongli ravishda faoliyatlarini muvofiqlashtirish talab etiladi.[5]

N.N.Malofeev, inklyuziv ta'lim amalga oshirishga yo'naltirilgan COACH texnologiyasiga e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydi. Uning nuqtai nazaricha COACH-texnologiyasi (Choice of accommodation for children – bolalar uchun turar joyni tanlash) og'ir va ko'p rivojlanish nuqsonlari bo'lgan bolalarni o'qitishda qo'llaniladi. Ushbu texnologiya bolalarni o'z-o'ziga xizmat qilishni o'rgatish va kundalik hayot sharoitida bolaga individual yordamni aniqlashga asoslangan.[6]

Ushbu texnologiyalarning barchasida umumiy pozitsiya mavjud – bu nogironligi bo'lgan har bir bolaning shaxsiyatining sog'lom tomonlariga tayanish va uning individual rivojlanish traektoriyasini rejalashtirishga yo'naltirilgan.

Xulosa o'rinda ta'kidlashimiz mumkinki, uzluksiz inklyuziv ta'limni tashkil etishning xorijiy texnologiyalari va strategiyalarini tahlil qilar ekanmiz, shuni ta'kidlash kerakki, uning turli mamlakatlarda rivojlanishi imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim olish huquqini amalga oshirishga qaratilgan fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va manfaatdor tomonlarni muhokama qilishdan kelib chiqqan, inklyuziyani tashkil etish muammosi doirasidagi masaladir.

Imkoniyati cheklangan bola uchun ta'lim yo'nalishini tanlash, ta'lim shaklini va umumiy ta'lim muhitiga kiritish darajasini aniqlash masalasi psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya tomonidan bolaning ehtiyojlari, rivojlanish xususiyatlari va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda hal qilinishi kerak. Bu jarayonda imkoniyati cheklangan bolani tarbiyalayotgan ota-onalarning bevosita ishtiroki muhim ahamiyatga ega.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Autism spectrum disorder - focus on educational methods. Cateljine Verschuren. Seminar «Inclusive education in the context of integration processes».15 August, 2012.

2. Corbet J. Inclusive education and school culture [Инклюзивное образование и школьная культура] [Электронный ресурс]: Jenny Corbet // International Journal of Inclusive Education. 1999. Vol. 3, No. 1. P. 53-61. URL: <http://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/136031199285183>

3. U.S. Department of Education. Report «Education and inclusion in the United States: an overview». September, 2008.

4. Включение ребенка с особыми потребностями: обучение в рамках



подхода «Реггио Эмилия» [Электронный ресурс]: Theory Into Practice, 46: 1, 23-31. URL: <http://dx.doi.org/10.1080/00405840709336545>

5. Ливенцева Н.А. Обзор современных зарубежных исследований по проблемам инклюзивного образования / Н.А. Ливенцева // Психологическая наука и образование. - 2011. - № 3. - С. 114-121.

6. Малофеев Н. Н. Специальное образование в меняющемся мире. Россия: учебное пособие для студентов пед. вузов. / Н.Н. Малофеев. - Москва: Просвещение, 2010. В 2 ч. Ч. 1. - 319 с.

7. Малофеев Н.Н. Интегрированное обучение в России: задачи, проблемы и перспективы / Н.Н.// Особый ребенок: исследования и опыт помощи. - Москва, 2000. - Вып. 3: Проблемы интеграции и социализации. - С. 65-73.

8. Ярская-Смирнова Е. Р. Инклюзивное образование детей-инвалидов / Е.Р. Ярская-Смирнова, И.И. Лошакова // Социологические исследования. - 2003.- № 5. - С. 100-106.



*Jurnalning ushbu sonini  
tayyorlashda qatnashganlar:  
L.Qaraxanova, S.Pirmatov.*

*O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligidan  
03.01.2007 yilda № 0101 tartib raqami bilan  
ro‘yxatdan o‘tgan.*

*«Uzluksiz ta’lim» jurnali O‘zbekiston Respublikasi OAK  
rayosatining 2013 yil 30 dekabrda 201/3-sonli qarori bilan  
pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha ilmiy jurnallar  
ro‘yxatiga kiritilgan.*

*Jurnal talablariga to‘liq rioya qilingan holda 1,5 intervaldagi  
6-7 bet hajmdagi ilmiy maqolalar elektron versiyasi  
bilan birga qabul qilinadi.*

Bosishga ruxsat etildi: 06.05.2023 y. Qog‘oz bichimi 60x84  $\frac{1}{16}$   
Ofset bosma usulida bosildi. 8-bosma taboq.  
Adadi 120 nusxa. Buyurtma

**«ADAD PLYUS» MCHJ matbaa korxonasi.  
Toshkent sh., Chilonzor t. Bunyodkor ko‘chasi, 28-uy.**